

VAKSINATSIYA OQIBATLARIDAN SUG'URTA QILISH MUHIM SHARTLARI

I. SUG'URTA HODISASI

1.1. Sug'urta shartnomasi amal qilish davrida sug'urtalangan shaxsning COVID-19 vaksinatsiyasi doirasida qabul qilgan, rasman xujjatlashtirilgan vaksinaning salbiy oqibatlari natijasida yuz bergan quyidagi hodisalar sug'urta hodisalarini hisoblanadi:

- To'liq mehnat qobiliyatini yo'qotish;
- Vaksinatsiya oqibatida sog'lig'ining yomonlashishi natijasida sug'urtalangan shaxsning vafot etishi.

II. QUYIDAGILAR SUG'URTA HODISASI HISOBLANMAYDI

Mazkur shartnomaning 1.1. kichik bandida keltirilgan hodisa quyidagilar oqibatida yuzagan kelganda sug'urta hodisasi hisoblanmaydi va sug'urtalangan qaltislik sanalmaydi:

a) Sug'urtalangan shaxsning surunkali kasalliklari xuruji va o'tkir kasalliklar bilan og'rish holatida vaksinatsiyaning amalga oshirilishi;

b) isitma holatida vaksinatsiyaning amalga oshirilishi;

d) immunosupressiv muolaja holatida vaksinatsiyaning amalga oshirilishi;

e) inson plazmasi yoki qon immunoglobulinlarining yuborilishi holatida vaksinatsiyaning amalga oshirilishi;

f) sug'urta shartnomasi/polisi tuzilgunga qadar amalga oshirilgan vaksinatsiya;

g) OITS va OIV infeksiyasi bilan og'rish holatida vaksinatsiyaning amalga oshirilishi;

1.1. kichik bandida keltirilgan hodisa quyidagilar oqibatida yuzaga kelganda Sug'urta qildiruvchi sug'urta qoplamasini to'lashdan ozod etiladi:

a) sug'urtalangan shaxs va naf oluvchining qastdan qilgan xarakati;

b) suisid (o'z joniga qasd qilish), uchinchi shaxslarning majburlovi natijasida o'z joniga qasd qilish bundan mustasno;

d) yadro portlashi, radiasiya va radiaktiv nurlanish, zaharlanish ta'sirida, harbiy harakatlar, harbiy mashqlar, fuqarolar urushi, ish tashlash, halq ko'tarilishini har hil turlari oqibatida sog'liqning yo'qotilishi yoki o'lim.

e) Qarilik tufayli vafot etish sug'urta hodisasi hisoblanmaydi.

III. SUG'URTA PULINI OLISH VA OLİSH UCHUN TAQDIM QILINADIGAN HUJJATLAR

3.1. Sug'urta qildiruvchi/Sug'urtalangan shaxsning sug'urta polisida ko'zda tutilgan baxtsiz hodisalar natijasida sog'lig'iga zarar yetkazilganligi to'g'risida Sug'urtalovchiga 30 (o'ttiz) kun ichida xabar qilishi lozim.

3.2. Sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta hodisasi natijasida Sug'urta qildiruvchi/Sug'urtalangan shaxsning to'liq mehnat qobiliyatini yo'qotilishida Sug'urtalovchiga quyidagi ma'lumotlar bilan murojaat qilishi shart:

- Sug'urta hodisasi bo'yicha Sug'urta puli/ta'minotini olish uchun ariza;

- Sug'urta polisi;

- Shaxsni tasdiqllovchi xujjat;

- Sug'urta hodisasi yuz berganligini tasdiqllovchi davolash muassasasining ma'lumotnomasi;

- To'liq mehnat qobiliyatini yo'qotilishini tasdiqllovchi hujjat;

3.3. Sug'urta polisida ko'rsatilgan baxtsiz hodisalar natijasida vafot etganda:

- Naf oluvchining (voris)ning arizasi;

- Sug'urta polisi;

- FXDYO bo'limidan o'lim to'g'risidagi guvohnoma yoki uning notarial idora tomonidan tasdiqlangan nusxasi;

- Vorislik huquqi to'g'risida notarial idora tomonidan tasdiqlangan guvohnoma nusxasi;

- Sug'urta qildiruvchining/vorisning shaxsini tasdiqllovchi hujjat.

3.4. Sug‘urtalangan shaxsning o‘limi sababli to‘lanadigan sug‘urta puli miqdori sug‘urta polisida belgilangan sug‘urta puli darajasida belgilanadi. Sug‘urtalangan shaxsning to‘liq mehnat qobiliyatini yo‘qotishi sababli to‘lanadigan sug‘urta puli miqdori sug‘urta polisida belgilangan sug‘urta pulining 50 (ellik) foizi belgilanadi.

Bunda Sug‘urtalangan shaxsning sug‘urta polisi amalda bo‘lgan davridagi olgan oldingi hodisalar uchun to‘langan sug‘urta puli miqdori chegirib qolinadi. Sug‘urta hodisasi bo‘yicha umumiy to‘langan pul mablag‘lari Sug‘urta pulidan oshmasligi kerak.

IV. TO‘LOV MUDDATI

4.1. Sug‘urta qildiruvchi tomonidan sug‘urta hodisasi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ma’lumotlar va hujjatlarni to‘liq taqdim qilingandan keyin, Komissiya tomonidan hujjatlar o‘rganib chiqiladi va 15 kun ichida sug‘urta hodisasi yuz berganligi yoki yo‘qligi to‘g‘risida dalolatnoma tuziladi. Sug‘urta hodisasi yuz berganligi aniq bo‘lsa, komissiya sug‘urta puli/ta’minoti miqdorini aniqlaydi hamda hodisa tan olinganligi haqida tuzilgan dalolatnomada aks ettiradi.

4.2. Sug‘urta puli/ta’minoti dalolatnoma imzolangan kundan 5 bank kuni ichida Sug‘urtalangan shaxs (Manfaatdor shaxs)ning bankdagi omonat daftarchasiga yoki plastik kartochka hisob raqamiga uning yozma arizasiga binoan pul o‘tkazish yo‘li bilan to‘lanadi.

4.3. Sug‘urta qildiruvchining shartnomani (polisni) bekor qilish bo‘yicha yozma murojaatiga ko‘ra, Sug‘urtalovchi Sug‘urta qildiruvchiga shartnomaning o‘tmagan muddatiga mutanosib ravishda sug‘urta mukofotlari qaytarib beriladi. Bunda Sug‘urtalovchining sug‘urta ishini yuritish bilan bog‘liq bo‘lgan sug‘urta mukofotining 25 foizi miqdoridagi xarajatlari qaytariladigan sug‘urta mukofotidan chegirilib qolinadi.

V. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Sug‘urtalangan shaxsning majburiyatları:

a) jabrlangan Sug‘urtalangan shaxsni sog‘lig‘ini holatini tekshirishga va kasallik tarixini o‘rganishga Sug‘urtalovchiga qarashli shifokor-ekspertga ruxsat berish;

b) tibbiyot muassasasi tomonidan tegishli tartibda rasmiylashtirib taqdim etilgan vaksinatsiya salbiy oqibatida yuzaga kelgan salomatlikning yo‘qotilishi yuzasidan ma’lumotnomasi (kasallik tarixidan ko‘chirma).

5.2. Sug‘urtalangan shaxsning huquqlari:

a) Sug‘urta shartnomasini tuzayotganda Naf oluvchini tanlash;
b) Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda uning foydasiga tuzilgan Sug‘urta shartnomasi(Sug‘urta polisi) bo‘yicha Sug‘urtalovchi olgan javobgarlikni bajarishini talab qilish.

5.3. Sug‘urtalovchining majburiyatları:

a) Sug‘urta hodisasi ro‘y berganda Sug‘urta qildiruvchiga (Naf oluvchiga) sug‘urta shartnomasi (Sug‘urta polisi)da belgilangan muddatda va tartibda (kerakli hujjatlarni rasmiylashtirgandan so‘ng) sug‘urta tovonini amalga oshirish;

b) Sug‘urta tovonini rad etish to‘g‘risidagi qaror qabul qilingan hollarda bu haqda Sug‘urta qildiruviga yozma ravishda xabar berish;

d) Sug‘urta qildiruvchiga Sug‘urta shartnomasi (Sug‘urta polisi) muddati davomida sug‘urtaga oid maslahatlar berish;

e) Sug‘urta shartnomasini tuzayotganda Sug‘urtalanayotgan shaxs yoki Naf oluvchining shartnomasi bo‘yicha huquq va majburiyatları bilan tanishtirish;

f) Sug‘urta qildiruvchi sug‘urta polisini:

- sug‘urta shartnomasi tuzilgan taqdirda sug‘urta mukofotini to‘lagandan so‘ng 3 kundan kechikmay;

- sug‘urta qildiruvchining og‘zaki arizasiga asosan sug‘urta mukofoti naqd pulda to‘langan vaqtning o‘zida taqdim etish.

g) Sug‘urta shartnomasi (sug‘urta polisi) tuzish jarayonida o‘ziga ma’lum bo‘lgan sug‘urta qildiruvchi, sug‘urtalangan shaxsga ta’luqli ma’lumotlar maxfiyligini ta’minalash.

5.4. Sug‘urtalovchining huquqlari:

- a) Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urta shartnomasi (Sug‘urta polisi) tuzilgandan so‘ng Sug‘urtalovchiga bila turib (sog‘liq va Sug‘urta xavfiga oid) yolg‘on ma’lumotlar bergenligi aniqlansa, Sug‘urtalovchi shartnomani haqiqiy emas deb topish;
- b) Sug‘urtalovchi o‘ziga qarashli shifokor-ekspertni jabrlangan Sug‘urtalangan shaxsning sog‘lig‘ini holati va kasallik tarixini o‘rganish uchun yuborish;
- c) Sug‘urta shartnomasi tuzilayotganda Sug‘urtalovchi Sug‘urta qildiruvchining sog‘lig‘ini haqiqiy holatini aniqlash uchun uni tekshirtirish;
- d) Sug‘urta shartnomasi tuzilayotganda Sug‘urtalovchi Sug‘urta qildiruvchining sog‘lig‘ini haqiqiy holatini aniqlash uchun uni tekshirtirish;

5.5. Sug‘urta qildiruvchining majburiyatları:

- a) Sug‘urta shartnomasi (Sug‘urta polisi) tuzilayotganda Sug‘urta qildiruvchi (Sug‘urtalangan shaxs) o‘ziga ma’lum bo‘lib, sug‘urta hodisasi yuz berishi ehtimolini va uning yuz berishi tufayli kutilajak zarar miqdori (Sug‘urta xavfi)ni aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan holatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Sug‘urtalovchiga xabar qilish. Sug‘urta shartnomasi (Sug‘urta polisi)da yoki yozma arizada Sug‘urtalovchi tomonidan oldindan aniq aytib qo‘yilgan holatlar muhim deb hisoblanadi;
- b) Zarur hollarda Sug‘urtalovchiga qarashli shifokor-ekspertga jabrlangan Sug‘urtalangan shaxsning sog‘lig‘ini holati va kasallik tarixini o‘rganish uchun ruxsat berish;
- c) Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urta mukofotini Sug‘urta shartnomasida belgilangan tartibda, muddatda va miqdorda to‘lash;
- d) Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha Sug‘urta hodisasi yuz berganda, Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lgan vaqtdan 30 (o‘ttiz) kundan kechikmay, Sug‘urtalovchini yoki uning vakilini yozma ravishda xabardor qilish;
- e) Sug‘urta shartnomasini tuzayotganda Sug‘urtalangan shaxs yoki Naf oluvchini shartnomasi bo‘yicha huquq va majburiyatları bilan tanishtirish.

5.6. Sug‘urta qildiruvchining huquqlari:

- a) Sug‘urta qildiruvchi Sug‘urtalovchidan Sug‘urta shartnomasi amal qilish davrida sug‘urtaga doir maslahatlar olish;
- b) Sug‘urtalovchining Sug‘urta tovonini yoki Sug‘urta pulini to‘lashni rad etganda unga nisbatan sudda da‘vo qo‘zg‘atish yo‘li bilan e’tiroz bildirish;
- c) Sug‘urta mukofoti o‘z vaqtida to‘langandan so‘ng kelishilgan muddatda sug‘urta mukofotini olish.
- d) Sug‘urta polisi yo‘qotilgan taqdirda uning dublikatini olish.